




New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

12 (62) 2023

**Сопредседатели редакционной
коллекции:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
Л.М. АБДУЛЛАЕВА
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
М.А. АБДУЛЛАЕВА
Х.А. АБДУМАДЖИДОВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
С.М. АХМЕДОВА
Т.А. АСКАРОВ
М.А. АРТИКОВА
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.А. ДЖАЛИЛОВ
Н.Н. ЗОЛотова
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
А.С. ИЛЬЯСОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
А.М. МАННАНОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Ф.С. ОРИПОВ
Б.Т. РАХИМОВ
Х.А. РАСУЛОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОЕВ
С.А.ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
Д.А. ХАСАНОВА
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
Ш.Ш. ЯРИКУЛОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
Д.О. ИВАНОВ (Россия)
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

*Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал
Научно-реферативный,
духовно-просветительский журнал*

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

12 (62)

2023

ноябрь

www.bsmi.uz

https://newdaymedicine.com E:

ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

Received: 20.11.2023, Accepted: 27.11.2023, Published: 10.12.2023.

UDK 612.335(611.428)

BOSH MIYA SHIKASTLANISHIDAN KEYINGI DAVRLARIDA INGICHKA ICHAKDA YUZ BERADIGAN MORFOLOGIK O'ZGARISHLAR

Achilov Luqmon G'ayratovich <https://orcid.org/0009-0004-0021-6714>
Teshayev Shuhrat Jumayevich <https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0002-1996-4275>

Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti, O'zbekiston, Buxoro, st. A. Navoiy. 1
Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Rezyume*

So'nggi yillarda butun dunyo bo'ylab travmatik shikastlanishlarning har yili o'sish tendentsiyasi kuzatilmoqda, bu transport vositalari soni va yuqori tezlik bilan bog'liq. Bosh miya travmatik shikastlanishi eng ko'p uchraydigan shikastlanish turi bo'lib, barcha turdagi jarohatlarning 40% ni tashkil qiladi. Reanimatsiya bo'limida og'ir ahvolda bo'lgan bemorlarda asosiy hayotiy ko'rsatkichlar doimiy ravishda nazorat qilinadi, ichaklardagi o'zgarishlar ko'pincha hisobga olinmaydi, chunki intensiv terapiya odatda boshqa organlar va tizimlarning ishlashini ta'minlashga qaratilgan. Bemorlarning 59,1 foizida oshqozon-ichak buzilishining kamida bitta alomati aniqlanadi.

Kalit so'zlar: shikastlanish, ingichka ichak, shilliq qavat, morfologiya.

МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ, ВОЗНИКАЮЩИЕ В ТОНКОЙ КИШКЕ ПОСЛЕ ЧЕРЕПНО-МОЗГОВОЙ ТРАВМЫ

Ачилов Лукмон Гайратович <https://orcid.org/0009-0004-0021-6714>
Тешаев Шухрат Джумаевич <https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0002-1996-4275>

Бухарский государственный медицинский институт имени Абу Али ибн Сины, Узбекистан,
г. Бухара, ул. А. Навои. 1 Тел: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Резюме*

В последние годы во всем мире наблюдается ежегодный рост травматизма, что связано с количеством транспортных средств и высокой скоростью движения. Черепно-мозговая травма является наиболее распространенным видом травмы, составляя 40% всех видов травм. У больных реанимации постоянно контролируют основные жизненные показатели, изменения в работе кишечника часто не учитываются, поскольку интенсивная терапия обычно направлена на обеспечение функционирования других органов и систем. У 59,1% больных имеется хотя бы один симптом желудочно-кишечных расстройств.

Ключевые слова: травма, тонкая кишка, слизистая оболочка, морфология.

MORPHOLOGICAL CHANGES OCCURRING IN THE SMALL INTESTINE AFTER BRAIN INJURY

Achilov Luqmon Gayratovich <https://orcid.org/0009-0004-0021-6714>
Teshayev Shuhrat Jumaevich <https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0002-1996-4275>

Bukhara State Medical Institute named after Abu Ali ibn Sina, Uzbekistan, Bukhara, st. A. Navoi.
1 Tel: +998 (65) 223-00-50 e-mail: info@bsmi.uz

✓ *Resume*

In recent years, there has been an annual increase in traumatic injuries worldwide, which is associated with the number of vehicles and high speed. Traumatic brain injury is the most common type of injury, accounting for 40% of all types of injuries. In intensive care patients, the main vital signs are constantly monitored, changes in the intestines are often not taken into account, since intensive care is usually aimed at ensuring the functioning of other organs and systems. 59.1% of patients have at least one symptom of gastrointestinal disorders.

Key words: injury, small intestine, mucosa, morphology.

Dolzarbligi

Miya shikastlanishi murakkab multidisiplinar muammo bo'lib sog'liqni saqlash sohasidagi eng muhim muammolardan biridir. Miya travmatik shikastlanishi nogironlik bo'yicha yetakchi mavqega ega bo'lgan 45 yoshgacha bo'lgan aholi o'limining asosiy sabablaridan biridir. Dunyoda o'lim sababi sifatida travmatik miya shikastlanishi yurak –qon tomir va onkologik kasalliklardan keyingi uchinchi o'rinda turadi. Shikastlanish chuqurligining oshishi oshqozon-ichak shilliq qavat va silliq mushak qavatining qalinlashishi, diapedetik qon ketishlar, eroziyalar, yaralar, shuningdek, oshqozon-ichakdan qon ketishining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, mikrosirkulyatsiya buzilishining morfologik ko'rinishlari butun ichak bo'ylab notekis qayd etiladi va qon tomirlarining eng katta kontsentratsiyasi bo'lgan joylarda aniqroq namoyon bo'ladi. Aniqlanishicha, aynan ingichka ichakning shilliq qavati, shilliq osti qavatining anastomozlari orqali arterial-venoz hodisalari tufayli qon aylanish gipoksiyasiga eng moyil bo'lib, epiteliyning ajralishi va deskvamatsiyasi, eritrositlarning erta nobud bo'lish, membranalar va ichak shilliq qavatining keyingi nekrozi bilan transkapillyar almashinuvining buzilishi sodir bo'ladi.

Tadqiqot maqsadi: bosh miya shikastlanishidan so'ng ingichka ichakda yuz beradigan morfologik o'zgarishlarni aniqlashdan iborat.

Material va usullar

Tadqiqot 3-6-9 oylik 180 ta oq zotsiz kalamushlarda o'tkaziladi. Tadqiqot maqsadiga muvofiq barcha kuzatilgan hayvonlar 3 ta taqqoslanadigan guruhga bo'linadi: birinchi guruh-intakt guruhdagi (n=60) uch oylik oq kalamushlar ingichka ichagining morfometrik ko'rsatkichlarini o'rganish. Ikkinchi guruh –“yo'l-transport hodisasi” usulida hayvonlarning bosh miya shikastlanishini travmadan keyingi 1-, 7-, 21- kunlarda uch oylik oq zotsiz kalamushlar (n=60) ingichka ichakning morfometrik ko'rsatkichlarini o'rganish. Uchinchi guruh –uch oylik oq kalamushlarni (n=60) bosh miya shikastlanish olgandan keyingi birinchi kunlardan boshlab 10 kun davomida konservativ davo muolajalarini o'tkazgandan keyin ingichka ichakning morfometrik ko'rsatkichlarini o'rganish. Medikamentoz korreksiya maqsadida L-lizin aescinat 1mg/ml ishlatildi, 5ml mushak ichiga yuborildi, 5 ml 25% magniy sulfat eritmasi 45ml izotonik fiziologik eritmada eritildi va hosil bo'lgan aralashmaning 0.5ml mushak ichiga yuborildi, 4ml 125ml/mg sitikolin eritmasi mushak ichiga 10 kun davomida yuborildi. “Yo'l-transport hodisasi” usuli bo'yicha hayvonlarning bosh miya shikastlanishidan keyingi guruhlarda va intakt guruhlarda morfologik va morfometrik ko'rsatkichlar qiyosiy tahlili o'tkazildi va olingan natijalar statistik qayta ishlandi.

Tadqiqot usullari.


- makropreparatlarni Gellman usuli bo'yicha bo'yash
- Xarris bo'yicha gematoksilin bilan mikroslyaydlarni bo'yash
- Van Gison bo'yicha mikroslyaydlarni bo'yash
- immunogistokimyoviy usulda mikropreparatlarni bo'yash
- Strelkov jadvallari yordamida o'zgaruvchanlik statistikasi usuli va Student t-testini aniqlash

Natija va tahlillar

Tadqiqotning birinchi bosqichining maqsadi limfoid to'qimalarning morfometrik tuzilishini, ya'ni nazorat guruhidagi ingichka ichakning limfoid tugunlarini o'rganish edi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhidagi 6 oylik oq kalamushlarning ingichka ichaklarining uzunligi 643 mm dan 861 mm gacha, o'rtacha $763,2 \pm 8,54$ mm. (3-rasm). Ingichka ichak tutqich qismining boshlang'ich bo'limining diametri 5,9 mm dan 7,9 mm gacha, o'rtacha -

6,95±0,08 mm, ingichka ichakning o'рта qismi diametri 5,9 mm dan 6,65 mm gacha. o'rtacha - 6,25±0,23 mm, terminal qismining diametri esa 5,2 mm dan 6,7 mm gacha, o'rtacha - 5,95±0,06 mm. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ingichka ichakning diametri proksimaldan distalga kamayadi. Ingichka ichakning umumiy maydoni 4359,3 mm² dan 5332,18 mm² gacha, o'rtacha 4872,5±0,5 mm².



Rasm 1. Oq kalamush ingichka ichagining makromorfologiyasi. Makropreparat.
1-ingichka ichak, 2-yonbosh ichak, 3-ko'r ichak, 4-yo'g'on ichak




Rasm 2. 6 oylik kalamush ingichka ichagining joylashishi. Makropreparat.

1- oshqozon, 2-o'n ikki barmoqli ichak, 3-ingichka ichak, 4-yonbosh ichak, 5-ko'r ichak, 6-yo'g'on ichak.

Nazorat guruhining 6 oylik kalamushlarida tutqichning boshlang'ich qismining devor qalinligi 569 dan 776,1 mkm gacha, o'rtacha -625,4 ± 5,8 mkm, ingichka ichakning tutqich qismining o'рта qismida. 503 - 754 mkm, o'rtacha 604,8 ±9,7 mkm, yakuniy qismida 502-765 mkm oralig'ida, o'rtacha 588,7±8,9 mkm.


Tajriba natijalariga ko'ra, ikkinchi guruhda 6 oylik oq zotsiz kalamushlarning ingichka ichaklarining uzunligi 684 mm dan 896 mm gacha, o'rtacha 788,9 ± 7,8 mm. Ingichka ichakning tutqich qismining boshlang'ich qismining diametri 5,9 mm dan 7,8 mm gacha, o'rtacha - 6,86 ± 0,08 mm, ingichka ichakning o'рта qismining diametri o'rtacha 5,2 mm dan 7 mm gacha. - 6,22±0,06 mm, terminal qismining diametri esa 5,0 mm dan 6,8 mm gacha, o'rtacha 5,9±0,07 mm gacha o'zgargan. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ingichka ichakning diametri sezilarli darajada o'zgarmagan va nazorat guruhidagi kabi proksimaldan distalgacha kamaygan. Ingichka ichakning umumiy maydoni 4232,54 mm² dan 5467,12 mm² gacha, o'rtacha -4991,3±0,31 mm².



Rasm 3. Nazorat guruhidagi 6 oylik kalamushning ingichka ichaklarining o'rtta qismida yig'ilgan oval shaklidagi limfoid tugun. Helman bo'yash usuli.



Rasm 4. Nazorat guruhidagi 5 oylik kalamushning ingichka ichaklarining o'rtta qismida yig'ilgan oval shaklidagi limfoid tugunlar. Helman bo'yash.
1 - ingichka ichak devori, 2 - limfoid blyashka.



Rasm 5. Uchinchi guruhdagi 6 oylik kalamushning ingichka ichakning o'rtta qismida bitta limfoid tugun. Bo'yash: gematoksilin-eozin. 1-Yagona limfoid tugun, 2-kripta, 3-mushak qavat.

Uchinchi tadqiqot guruhida guruhlangan limfoid tugunlar tomonidan hosil qilingan umumiy maydon 176 mm² dan 194 mm² gacha, o'rtacha 184,6 mm² ni tashkil etdi. Bu ingichka ichakning umumiy maydonining 3,69% ni tashkil qiladi.

Uchinchi guruhda, ingichka ichakning proksimal qismidagi 100 epiteliy hujayralariga intraepitelial limfotsitlar soni o'rtacha $13,5 \pm 0,15$ dona, o'rta qismida $16,7 \pm 0,14$ dona, distal qismida 20,25 dona. Nazorat guruhida ingichka ichakning proksimal qismidagi 100 villus epiteliy hujayralariga intraepitelial limfotsitlar soni o'rtacha $16,1 \pm 0,6$ ni tashkil etdi. Ikkinchi va uchinchi guruhlardagi tadqiqotning eksperimental guruhlaridagi dinamikada o'zgarishlar sezilarli emas edi, lekin 4 va 5-guruhlarda intraepitelyal limfotsitlar 21 va 34% ga kamaydi.

Xulosa

Biz aniqlagan ma'lumotlar morfologiya, gistologiya va gastroenterologiyada tavsiya etilishi mumkin va shikastlanish haqiqatan ham ingichka ichakning limfoid tuzilishiga zararli ta'sir ko'rsatadi, bu limfoid to'qimalarning funksional faolligini pasayishiga olib keladi. Bu esa butun dunyoda global muammo bo'lgan jiddiy nojo'ya dori reaksiyalarining rivojlanishiga qarshi kurashishga yordam beradi. Miya shikastlanishi davrida oshqozon-ichak traktining limfa va limfoid shakllanishining morfologiyasini batafsil va zamonaviy chuqur o'rganish terapiyani oqilona o'tkazish, sog'liqni saqlash xarajatlarini kamaytirish, salbiy dori reaksiyalarini hal qilishning oqilona usullarini ishlab chiqish, xavfsizlik va samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adilbekova D.B., Chorjeva Z.Yu., Ismatullaeva G.X., Xaitmuradova G.P. Gistomorfologicheskie izmeneniya v jeludochno-kishechnom trakte potomstva, rojdenные ot materey s xronicheskim toksicheskim gepatitom // «Evraziyskiy vestnik pediatrii». 2020;1(4):211-221.
2. Aliseyko Ye. A., Gromov I. N. Vliyaniye litiya karbonata na morfologiyu limfoidnogo apparata organov pishchareniya syplyat, vaksinirovannykh protiv infektsionnoy bursalnoy bolezni // Aktualnye problemy intensivnogo razvitiya jivotnovodstva. 2011;14(2):101-107.
3. Aminova G. G., Grigorenko D. Ye. Slizistaya obolochka polykh vnutrennix organov i yee rol v immunnnykh protsessax // Aktualnye problemy gumanitarnykh i yestestvennykh nauk. 2012;8.
4. Azizova F.X., Atadjanova A.N., Ishandjanova S.X. Strukturnye osobennosti reaktsii immunnnoy sistema tonkoy kishki na antigennoye vozdeystvie v razlichnyye periody postnatalnogo ontogeneza // Nauchnyy fond "Biolog". 2014;3:23-26.
5. Belyaeva Ye.V., Guzin Ya.A. Metody vizualizatsii i issledovaniya kishechno-assotsirovannoy limfoidnoy tkani laboratornykh jivotnykh // Laboratornye jivotnye dlya nauchnykh issledovaniy. – 2020;3:68-74.
6. Bikkinina G.M., Safuanov A.R. Nejelatelnye lekarstvennyye reaktsii nesteroidnykh protivovospalitelnykh preparatov // Molodoy uchenyy. 2015;7(87):269-272.
7. Bodryagina Ye.S., Odinsova A.X., Belousova Ye.N., Glebasheva S.G. Differentsialnaya diagnostika porajeniya tonkoy kishki pri variabelnoy immunnnoy nedostatochnosti // EiKG. 2019;7(167):59-62.
8. Bondarchuk A.O., Fomina L.V., Gavriluk A.A., Mnixovich M.V., Jerebyateva S.R. Izmenenie aktivnosti vosstanovleniya slizistoy obolochki tonkoy kishki pod vozdeystviem siklofosfamida i korreksiya yego preparatami, stimuliruyushimi vosstanovlenie tkaney pishchevaritel'nogo trakta // Ros. med.-biol. vestn. im. akad. I.P. Pavlova. 2015;1:15-24.
9. Borxanova E.G., Chuklyaeva A.V. Porajenie tonkoy kishki pri pervichnom immunodefitsite // Kazanskiy meditsinskiy jurnal. 2017;4:662-664.
10. Shomurodova Mukhayo Rakhmonovna, (May 6, 2023). Morphological Features and Morphometric Parameters of the Lungs after Correction with an Immunomodulator Under the Conditions of Experimental Chemotherapy. // Journal of Natural and Medical Education 2023;55-60.
11. Shomurodova Mukhayo Rakhmonovna, (05 2023) Mastopatiya. Yosh Patmorfolog Nigohida. Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali 2023;193-197. <https://sciencebox.uz>
12. Shomurodova Muxayyo Raxmonovna (05 2023) Morfometricheskie Pokazateli Legkix Posle Korreksii Immunomodulyatorom V Usloviyax Eksperimentalnoy Ximioterapii Amaliy va tibbiyot fanlari ilmiy jurnali 2023;198-202. <https://sciencebox.uz>
13. Zokirovna O. A. Comparative characteristics of the morphological parameters of the liver at different periods of traumatic brain injury // Euro-Asia Conferences. 2021;139-142.
14. Zokirovna O. A. Macroand microscopic structure of the liver of threemonthly white rats // Academic research in educational sciences. 2021;2(9):309-312.
15. Zokirovna O. A., Jumaevich T. S. Morphological Aspects of the Liver of White Outbred Rats After Severe Traumatic Brain Injury Caused Experimentally in the Form of a Road Accident // Scholastic: Journal of Natural and Medical Education. 2023;2(2):59-62.
16. Olimova Aziza Zokirovna. (2022). Technique for cutting biopsy and surgical material in the practice of pathological anatomy and forensic medicine. // Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 2022;3(7):116-120. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/PSQ59>

Qabul qilingan sana 20.11.2023

